

**Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoy fanlar fakulteti
"Pedagogik ta'lim" kafedrasи, PhD,
Nusratov Anvar taqrizi ostida**

Sabinabonu Muxaramova Zavqiddin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-Ped 22 guruh
talabasi
Email: sabinamuharramova@gmail.com
Telefon raqam: +998934158999

SHARQ PEDAGOGIKASIDA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARIDAGI QARASHLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: Maqlada Sharq xalqlari orasida yo‘lga qo‘yilgan ekologik tarbiya: ko‘chat va o‘simliklar ekip bo‘sh yerkarni ko‘kalamzorlashtirish, suv havzalarini iflos qilmaslik, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, tabiatning inson hayotidagi o‘rnini, hamda Qomusiy olimlarimizning ekologik fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ekologiya, ma’naviyat, bilim, axloq, din, organizm, madaniyat, falsafa, jamiyat, savodxonlik.

Аннотация: В статье изложены экологическое воспитание среди народов Востока: посадка саженцев и растений для озеленения пустующих земель, предотвращение загрязнения водоемов, забота о животных, роль природы в жизни человека, а также экологические взгляды наших великих ученых.

Ключевые слова: образование, воспитание, экология, духовность, знания, мораль, религия, организмы, культура, философия, общество, грамотность.

Annotation: The article discusses ecological education among Eastern peoples: planting saplings and plants to green barren lands, preventing water bodies from pollution, caring for animals, the role of nature in human life, as well as the ecological views of our renowned scholars.

Keywords: education, upbringing, ecology, spirituality, knowledge, morality, religion, organisms, culture, philosophy, society, literacy.

Kirish: Tabiat o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o‘z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat, mineral va yonilg‘i xomashyolarini oladi va o‘zining hayot faoliyati davomida tabiatga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab asosan hayot kechirish uchun chorvachilik va dehqonchilik bilan shung‘ullangan. Mavsumlarga qarab yerga ishlov berishgan. Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatib ulardan go‘sht va sut mahsulotlari olish va yerkarga ishlov berishda foydalanishgan. Bunday qimmatli ma’lumotlarni olimlarimiz moddiy va ma’naviy ash’yolar asosida o‘rganib, fanga olib kirishgan. Moddiy ash’yolar: inson qo‘li bilan yasalgan tosh qurollar va mehnat qurollari, bilakuzuk, taqinchoq, ko‘zalar va shu kabi buyumlarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy ash’yolaga esa bugungi kunga qadar saqlanib qolgan qoyatosh suratlari va yozuvlar, qo‘lyozma asarlarni o‘z ichiga oladi. Ularda dorivor o‘simliklar va ularni parvarishlash usullari, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni ko‘paytirish, suvni iflos qilmaslik va atrof-muhitni toza tutish kabi nafaqat qadimgi davr uchun balki bugungi kun uchun ham qimmat bo‘lgan ta’limiy-tarbiyaviy va ekologik ma’lumotlar berilgan. Qomusiy olim Abu Nasr Farobi " Baxt- saodatga erishuv to‘g‘risida" asarida ta’lim va tarbiyaga birinchi bo‘lib ta’rif beradi. Ta’lim– so‘z va o‘rgatish asosida nazariy bilim berish; Tatbiya– inson uchun zarur

bo‘lgan axloqiy normalarni o‘rgatishdir, deydi olim[1;109]. "Ekologiya" atamasiga birinchi bo‘lib nemis olimi E. Gekkel "organizlarning atrof-muhit bilan munosabati", deb ta’rif bergen.

Materiallar va uslublar: Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lgan "Avesto" xalqimizning bebaaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o‘lkada buyuk davlat, yuksak ma’naviyat va madaniyat bo‘lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. «Avesto» tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o‘rganishga chorlovchi falsafadir. «Avesto»da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uyjoy, atrof–muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to‘g‘risida tavsiyalar berilgan. Jumladan: "Zardushtiylik ta’limotida 15 yosh balog‘at yoshi sanalgan. O’smirlar balog‘at yoshiga yetganda unga Zardush qonunlari– falsafa, axloq–odob qoidalari va axloqiy yo‘riqlar mazmuni o‘rgatilgan. O’smirlarning xudojo‘y, mehnatkash, adolatli bo‘lib voyaga yetishlari, o‘y-niyat, so‘z va ishida halollikka tayanishlariga alohida e’tibor berilgan. Bolalarga ularning yoshligidanoq ko‘chat o‘tqazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasash, yerga ishlov berish hamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan. Diniy g‘oyalarga ko‘ra Zardushtiylikda suv, havo, tuproq hamda quyosh muqaddas sanalgan. Shuning uchun ham ular suv havzalariga hayvonlar o‘ligini tashlamaganlar, agarda biror jonzot o‘ligi tushgan bo‘lsa suv havzasini bir necha bor yomg‘ir yoki daryo suvlari bilan to‘ldirib chiqarib tashlashgan"[2;28]. Bu ishlar atrof–muhitni asrash va odamlar orasida turli xil kasalliklarni kelib chiqishini oldini olish uchun qo‘llanilgan.

Islom dinida ham atrof–muhitni asrash bo‘yicha yo‘l–yo‘riqlar berilgan. Unda har bir musulmon atrofga ibrat nazari bilan qaramog‘i va tabiatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lmog‘i lozimligi uqtiriladi.

Alloh taolo "Qur‘on"ning «Abasa» surasi 24-32-oyatlarida shunday marhamat qiladi:

«Endi inson o‘zining taomiga (ibrat ko‘zi bilan) boqsin! Biz (osmondan) suvni mo‘l yog‘dirdik. So‘ngra Biz unda donlarni undirdik, uzum va ko‘katlarni, zaytun va xurmolarni, qalin daraxtzor bog‘larni meva–yu giyohlarni ham. Bular sizlar uchun va chorva hayvonlaringiz uchun manfaatdir»

Demak, barchamiz o‘zimiz yashab turgan joylarga, mahalla–ko‘ylarga turli daraxt ko‘chatlarni ekib obod qilsak, bundan nafaqat insonlar, balki hayvonlar va qushlar ham manfaat topadi. Hadisi sharifda ayttilishicha, ekilgan har bir daraxtning aytayotgan tasbehi, o‘scha daraxtni ekkan kishining nomai a‘moliga yoziladi hamda uning mevasidan boshqalar yesa yoki soyasida o‘tirscha ekkan kishining amal daftariga sadaqa savobi yozib qo‘yiladi. Mo‘min kishiga vafotida keyin ham bu amallarining savobi tegib turadi.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa olimlarimiz tabiat fanlarini riojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi mufozanat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash xaqidagi qimmatli fikrlarni aytganlar. "Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy 847-yilda "Kitob sur‘at al-arz" nomli asarini yozgan. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit‘alar, qutblar, ekvatorlar, cho‘llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar, o‘rmonlar va undagi o‘simlik va hayvonot dunyosi, shundaydek, boshqa tabiiy resurslar – Yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar berilgan[3;2].

Dunyoda okeanlar va yer sharining aylana ekanligi nazariyasini birinchi bo‘lib fanga kiritgan Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining "Minerologiya", "Saydana", "Hindiston" va boshqa asarlarida o‘simliklar va hayvonlar haqidagi ma’lumotlarni va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha o‘zining qimmatli fikrlarini yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniyning – "Agar insonlar tabiatga nisbatan zo‘ravonlik qilib, uning qonunlarini qo‘pollik bilan buzsalar, bir kun kelib tabiat ularni boshiga shunday kulfat solishi mumkinki, buni hech qanday kuch qaytara olmas"[4;2] degan g‘oyani ilgari surgangan.

Yer yuzida aholi sonining keskin o‘sib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko‘proq foydalanish va shu yo‘l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqazo qiladi. Natijada tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi. Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko‘pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko‘z o‘ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o‘z aqli zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham inson ekanligi ma’lum bo‘lib qoldi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko‘p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat’iy nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog‘liq. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Natijalar va muhokamalar: Sharq pedagogikasidagi ekologik tarbiya muhokamalari va natijalari haqida gapirganda, sharq xalqlari tarixan tabiat bilan uyg'unlikda yashashni, uning qonuniyatlarini o‘rganishni va unga g‘amxo'rlik qilishni muhim deb hisoblaganlar. Sharq pedagogikasida ekologik tarbiya ko‘pincha axloqiy, diniy va falsafiy qadriyatlarga tayangan. Sharqning ko‘plab xalqlari (islom, buddizm, hindizm, konfutsiylik) ekologiyani tabiatga nisbatan axloqiy mas‘uliyat sifatida ko‘rganlar. Masalan, Islomda tabiatni muhofaza qilish va hayvonlarga g‘amxo'rlik qilish buyurilgan. Hindizmda esa tabiatning har bir elementi, jumladan o‘simliklar va hayvonlar, inson bilan uyg'unlikda yashashi kerakligi ta‘kidlanadi. Bu nuqtai nazardan, ekologik tarbiya diniy e’tiqodlar bilan chambarchas bog‘liq. Sharq pedagogikasi ekologik tarbiyaga e’tibor qaratishda tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lishni, amaliy mashg‘ulotlar (masalan, o‘simlik ekish, hayvonlarga g‘amxo'rlik qilish) orqali yoshlarni tarbiyalashni afzal ko‘rgan. Bu, nafaqat tabiatni sevish, balki unga nisbatan hurmatni oshirishga yordam beradi. Sharq pedagogikasida ekologik tarbiya yoshlarni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Tabiatning har bir elementi muhimligini tushunish, odam va tabiatning o‘zaro bog‘liqligini anglash ekologik mas‘uliyatni oshiradi. Bu orqali yoshlar o‘zlarining ekologik ta’sirini tushunib, atrof-muhitni asrashga va uning holatini yaxshilashga intiladilar. Tabiatni hurmat qilish va uni muhofaza qilishga bo‘lgan yondashuv yoshlarni ekologik muammolarga diqqat bilan qarashga undaydi.

Xulosa: Inson tabiatning tarkibiy qismi sifatida u bilan birgalikda yashaydi. Insondon o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish jarayonida unga turli ta’sirlarni o‘tkazadi. Masalan, ozuqa va xomashyo olish maqsadida ko‘plab maydonlarda o‘zi xohlagan ekinlarni yetishtiradi, yerkarni haydaydi, sug‘oradi yoki turli sanoat ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun konlar ochadi. Insonning bunday ishlab chiqarish faoliyatları turlarini sanab adog‘iga yetish qiyin. Insonlar va ulardan tashkil topgan jamiyat mavjudligini taraqqiyotning moddiy negizi hisoblangan tabiatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson tabiat ne’matlaridan va kuchlaridan foydalanuvchi hamda ularni boshqaruvchi kuch sifatida o‘zini namoyon qiladi. Insonlarning tabiatga ta’siri boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Insondon boshqa barcha tirik organizmlarning tabiatga ta’siri oddiy tabiiy jarayonlardan iborat bo‘lib, tabiat qonunlari orqali

boshqariladi va tabiatga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Insonlar esa ongi tufayli tabiatga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi.

Foydalanimgan adabiyotlat:

1. K. Hoshimov, S. Nishonova, M. Imomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. –Toshkent.: "O'qituvchi", 1996, –109 bet.
2. K. Hoshimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. –Toshkent.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti", 2005, –28 bet.
3. D. Allabergenova. O'rta Osiyolik allomalarining tabiat va ekalogiya haqidagi fikrlari.– Toshkent. 2018,– 2 bet.
4. Sh. Ibragimova. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning qarashlari.– Farg'onha. 2021, –2 bet.